

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-MAY

ANDIJON,2024

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIIGA DIDAKTIK O'YINLAR ORQALI
BADIY O'QITISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Salimova Ganjina Salomovna

Termiz Davlat universiteti Mustaqil izlanuvchi (PDh)

ganjinosalimova38@gmail.com +998972439097

Annotatsiya: Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'quvchilariga badiiy o'qitish mexanizmlarini turli xil didaktik o'yinlar orqali bugungi kunda olib borilmayotganligini muammo sifatida ko'taradi.

Abstract: This article raises as a problem that the mechanisms of art education for elementary school students are not carried out today through various didactic games.

Аннотация: В данной статье поднимается проблема того, что механизмы художественного образования учащихся младших классов сегодня не осуществляются посредством различных дидактических игр.

Kalit so'zlar: Badiiy o'qitish, boshlang'ich ta'lif, didaktik o'yin, muammo, o'qituvchi, boshlang'ich sinf, o'quvchi, mexanizm.

Ключевые слова: Обучение искусству, начальное образование, дидактическая игра, задача, учитель, начальный класс, ученик, механизм.

Key words: Art teaching, primary education, didactic game, problem, teacher, primary class, pupil, mechanism.

Avvalo, badiiy o'qish nima degan savolni o'rtaga tashlasakda, bu so'zni ochiqlab olsak. Estrada san'atining bir turi: adabiy asar (she'riy nasr, shuningdek publitsistika) yoki dramatik parchani omma oldida ijro etib, tinglovchilarga asar mohiyatini badiiy ta'sirchan qilib yetkazish. O'tmishda Badiiy o'qish xalq baxshilari, ertakchilari, qiziqchilari ijodining asosi hisoblangan. Xo'sh, bugungi kunda kelib, boshlang'ich sinf o'quvchilariga badidiy o'qitish mexanizmlarni ochib beruvchi sutrukturnalar qay darajada ishlamoqda.

Boshlang'ich sinf o'qish darslarida ilmiy jihatdan bo'lmasa ham amaliy jihatdan turli janrga mos bo'lsan asarlar o'qib o'rgatiladi. Masalan topishmoq, maqol, masal, ruboiyu, g'azallar ham shular jumlasidandir. Boshlang'ich sinflardanoq bu kabi asarlarni bolalarga o'qib tahlil qilish orqali esa bola nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etishga, ulardagi ongning o'sishiga , shu bilan birga nutqiy rivojlanishga erishilishi barchamizga ma'lum.

Bu jarayonlarni boshlang'ich sinf o'quvchilariga yengilroq, osonroq va tushunarli tarzda yetkazib berish uchun biz bevosita didaktik o'yinlar orqali yondashishimiz mumkin boladi. Misol uchun, Tanlab hikoyalash ham bolalarning tafakkuri va nutqini o'stirish vositalaridan biridir [1]. Tanlab hikoyalashda o'quvchi: 1) o'qigan matndan bir qismini, uning chegarasini ongli ravishda ajratib so'zlab beradi; 2) hikoyadan faqat bir voqeani aytib beradi; 3) hikoya mazmunini faqat bir syujet yo'nalishida so'zlab beradi. Bolalar tanlab qayta hikoyalash malakasini hosil qilishga boshlang'ich sinf izohli o'qish darsida keng qo'llanadigan metodik usullar yordam beradi: 1) hikoya qismiga chizilgan rasm asosida hikoyalash; 2) hikoyadagi bir voqeani tasvirlovchi rasm asosida hikoyalash; 3) tanlab qayta hikoyalashni talab etadigan savollarga javob berish. O'quvchi tanlab hikoya qilishga tayyorlanganda o'qilgan matnni tahlil qiladi. Bunday tahlil bolalar tafakkurini, ular nutqidagi mustaqillikni o'stiradi va o'qilgan matn mazmunini o'zlashtirishga yordam beradi. Hikoyani o'qish bilan bog'liq holda o'tkaziladigan ijodiy ishlar ham o'quvchilar nutqini, tafakkurini o'stiradi.

Yoki yana bir usullardan biri bu o'quvchilardan bittasini o'qittirib, do'stining nima haqida o'qiganini so'zlab berish ham kata samaradorlikka yo'l ochadi.

O'qilgan hikoyani davom ettirish usuli maktab tajribasida keng qo'llanadi. Bu usul hikoyaning mazmuni uni davom ettirishga imkon beradigan asarlarda qo'llanadi. Boshlang'ich

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-MAY

ANDIJON, 2024

sinflarda hikoya syujeti, kompozitsiyasi, qahramonlarini o'rganish bo'yicha turli tahlillar matn ustida ishlash asosida olib boriladi. Bunda o'quvchining ijodiy faolligi ortadi, ijodiy fikrlash doirasi kengayadi [2]. Hikoya mazmunini o'zlashtirish bo'yicha matn asosida quyidagicha ishlar amalga oshiriladi:

1. Matn mazmuni yuzasidan o'qituvchi savollariga javob berish.
2. Hikoya matni asosidagi savol-topshiriqlarni bajarish.
3. Hikoya mazmuni yuzasidan o'quvchilarining savollar tuzishi.
4. Hikoya mazmuniga mos rasmlar chizish.
5. Hikoya matnni qismlarga bo'lish.
6. Har bir qismga sarlavha topish.
7. Hikoyaga reja tuzish.
8. Reja asosida qayta hikoyalash (to'liq, qisqartirib va ijodiy qayta hikoyalash).
9. Reja asosida bayon yozish. [3].

Bugungi kunda davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan badiiy o'qitish biz pedagoglardan eng qulay, eng oson va optimallashgan usul va metodlarni tanlab olib boshlang'ich sinf o'quvchilariga qo'llash kerakligini aytmoqda.

Har bir mamlakatning taraqqiyoti, istiqboli, farovonligi, ma'naviy yuksalishi, jahonning eng rivojlangan davlatlar qatoridan o'rinni olishi - bilimli, yuqori intellektual salohiyatlari, qalbiga va ongiga ezgu fazilatlarni mujassamlagan yoshlarga bog'liq hisoblanib, har jihatdan yetuk va barkamol, Vatan taqdiri uchun sidqi dildan xizmat qiladigan, fidoyi, iymonli avlodni voyaga yetkazish, o'qitishni sifatli va mazmun jihatdan yuqori pog'onalarga olib chiqish avvalo o'qituvchi va tarbiyachi murabbiylar zimmasiga sharafla va ayni paytda mas'uliyatli vazifani yuklaydi [4].

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tish kerakki, boshlang'ich sinf o'quvchilariga didaktik o'yinlar orqali badiiy o'qitish mexanizmini takomillashtirish bola ongingin rivojlashishi, o'z tilini bexato, boshqa sheva so'zlarini ishlatmastan haqiy turkiyona qilib rivojlanishiga hissa qo'shami desak mubolag'a etmagan bo'lamiz.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturi // O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining axborotnomasi, 7-maxsus son. T.: SHarq, 1999.
2. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha yangi tahrirdagi davlat ta'lim standarti // Boshl. ta'l. jurnali. Toshkent, 2005. №5. 5, 6, 8-9-betlar
- 3'Rafiev A. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi va imlosi. T.: 2003.
4. G'ulomov A. Ona tili o'qitish printsiplari va metodlari. T.: O'qituvchi, 1992.